



LOGOPEDIYANING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI

Abdurashidova Dilfuza Akmaljon qizi

NamDPI 1-kurs talabasi

abdurashidovadilfuza4@gmail.com

Ilmiy rahbar D.D.Oribboyeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada logopediyaning mustaqil fan sifatida shakllanish jarayoni, uning ilmiy-amaliy asoslari hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Logopediya — nutq nuqsonlarini o’rganuvchi, ularning oldini olish, tashxis qo’yish va korrektsiya usullarini ishlab chiquvchi pedagogik fan bo’lib, u psixologiya, tibbiyot va tilshunoslik sohalari bilan chambarchas bog’liq. Maqolada fanning shakllanishiga ta’sir qilgan ilmiy izlanishlar, ilk logopedik maktablar va mutaxassislarning hissasi yoritiladi.

Kalit so’zlar: korreksion, pedagogika, psixologiya, nutq, surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofreniypedagogika, predmet.

СТАНОВЛЕНИЕ ЛОГОПЕДИК КАК НАУКИ

Абдурашидова Дилфуза Акмалжон кизи

Студент 1-го курса НамГПИ

abdurashidovadilfuza4@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется процесс становления логопедии как самостоятельной науки, ее научно-практические основы и этапы исторического развития. Логопедия - педагогическая наука, изучающая речевые нарушения, разрабатывающая методы их профилактики, диагностики и коррекции, тесно связанная с психологией, медициной и лингвистикой. В статье освещаются научные исследования, которые повлияли на формирование науки, вклад ранних логопедических школ и специалистов.

Ключевые слова: коррекция, педагогика, психология, речь, сурдопедагогика, тифлопедагогика, олигофренопедагогика, субъект.

THE FORMATION OF SPEECH THERAPY AS A SCIENCE

Abdurashidova Dilfuza Akmaljon qizi

1st year student of NamSPI

abdurashidovadilfuza4@gmail.com

Abstract: This article analyzes the process of formation of speech therapy as an independent science, its scientific and practical foundations, and the stages of its historical development. Speech therapy is a pedagogical science that studies speech defects, develops methods for their prevention, diagnosis, and correction, and is closely related to the fields of psychology, medicine, and linguistics. The article highlights the scientific research that influenced the formation of science, the contribution of the first speech therapy schools and specialists.

Keywords correction: correction, pedagogy, psychology, speech, surdopedagogy, typhlopedagogy, oligophreniapedagogy, subject.

Bugungi kunda ta’lim va tarbiya tizimida shaxsning har tomonlama rivojlanishi, uning ijtimoiy hayotga to’laonli moslashuvi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, nutqiy faoliyat inson tafakkuri, muloqoti va o’z fikrini erkin ifoda etishida asosiy vosita sifatida alohida o’rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, nutq buzilishlarini o’z vaqtida aniqlash va to’g’ri yo’lga qo’yish zamonaviy jamiyat oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Mazkur ehtiyoj logopediyaning mustaqil fan sifatida shakllantirish va uni ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o’rganishni taqozo etadi. Chunki logopediya nafaqat nutq nuqsonlarini aniqlash va tuzatish, balki insonning psixologik, ijtimoiy va pedagogik rivojlanishida muhim rol o’ynaydi.

Logopediya yangi rivojlanayotgan fan sohalardan biri bo’lib, asosan maktab va maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqdagi muammolari bilan ishlovchi soha. Logopediya faqatgina nutqida nuqsoni



bòlgan bolalar bilan emas balki, afaziya (tilning yòqligi), disleksiya (til òzgarishi chegaralangan muommolar), kechiktirilgan til (tilni tòg'ri tarzda ishlashga yordam beradigan xususiyatlar) va boshqa muommolarni bartaraf etishda yordam beradi. Nuqiy nuqsoni bòlgan bolalar har bir talaffuz qilayotgan sòzlarida qiynalishadi yokida ba'zi bir tovushlarni ayta olmaydi. Bu holat ota-ona uchun avvaliga oddiy tuyiladi, biroq bola katta bòlishni boshlaganda rivojlanib, tengqur bolalardan ortda qolayotganini afsuski kech sezishadi. Bunday bolalar boshqalar bilan muloqot qilayotgan vaqtda òzi uchun qiyin hisoblangan sòzlarni talaffuz qilmaydi, yokida insonlar bilan kam muloqotga kirishadi ya'ni ularning ongida gapirsam bu sòzlarni aytgani qiynalaman, bu sòzlarni ayta olmayman degan hayol chulg'ab olgan bòladi. Bolalarda bunday nuqson hayoti davomida orttirilgan yokida, tug'ma holatlari mavjud. Tug'ma nuqsondan kòra orttirilgan nuqsonni davolash osonroq va yaxshi samara beradi.

Logopediyaning fan sifatida shakillanishi XX asrlarga borib taqaladi, dastlab, nutqdagi nuqsonlarni tuzatish masalalari XVII asrda Yevropa mamlakatlarida Surdopedagogikaga oid ilmiy ishlarda tadbìq etila boshlagan. XIX asr 2-yarmida bu sohaga mustaqil ravishda, ammo tibbiy nuqtayi nazarida yondashilgan bòlib asta-sekin nutq faoliyatining tabiati haqidagi ilmiy tasavvurlarning kengayib borishi va logopediya yònalishini tubdan òzgartirib, pedagogik mazmun birinchi òringa qòyildi va shunday qilib logopediya mustaqil fan sifatida shakillandi.

Logopediyaning maqsadi nutqida, tilida duduqlanishi bòlgan bolalarni aniqlash, korreksiya qilish va davolashdir. Logopediya fanining asosiy tamoyillari va metodlari tahlil natijalariga kòra, zamonaviy logopediya bir qator muhim tamoyillar va ularning amaliy ahamiyati aniqlangan.

I.P.Pavlov ta'limotiga muvofiq nutq bosh miyaning murakkab psixologik funksiyasi, uning ikkinchi signal tizimini o'zida nomoyon etadi. Birinchi va ikkinchi signal tizimlari o'zaro bir biri bilan uzviy bog'liq. Ikkinchi signal tizimi birinchi signal tizimi asosida shakkillanadi. Birinchi va ikkinchi signal tizimlari orasidagi o'zaro murakkab aloqalarni hisobga olish nutq buzilishini tuzatish, buzilgan nutq va nutqsiz funksiyalarning o'rnini bosish ustida samaraali logopedik ish olib boorish uchun imkoniyat yaratadi va shu bilan birga logopediyaning bir nechta vazifalari ham mavjud, quyidagilar misol bo'la oladi.

1. Nutq buzilishining turli shakllarida nutq faoliyatining ontogenezini o'rganish.
2. Nutq buzilishlarining keng tarqalganligi, alomatlari va darajalarini aniqlash.
3. Nutqiy faoliyati buzilgan bolalarning o'-o'zidan va biror maqsadga qaratilgan rivojlanish dinamikasini, shuningdek, nutqiy zaiflikni ularning shaxs sifatida yetishuviga, ruhiy rivojlanishiga, turli ko'rinishdagi faoliyatlarini namoyon qilishga, o'zlarini tutishlariga ta'sirini aniqlash.
4. Rivojlanishda turli xil farqlar bo'lgan bolalarda (eshitish, ko'rish, fikirlash qobilyatining hamda tayanch harakat apparatining buzilishi hollarida) nutqning shakillanishi va nutq buzilishlari xususiyatlarini o'rganish.
5. Nutq buzilishining kelib chiqish sabablari, mexanizmlari, tuzilishi va alomatlarini aniqlash.
6. Nutq buzilishlarining pedagogik tashxisi, metodlarini ishlab chiqish.
7. Nutq buzilishini tartibga solish.
8. Logopedik yordamni tashkil etish masalalarini ishlab chiqish.

Logopediyaning yuqorida ko'rsatilgan vazifalarida uning ham nazariy, ham amaliy yo'nalishlari belgilab berilgan. Uning nazariy tomoni-nutq buzilishlarini o'rganish hamda ularning oldini olish, aniqlash va tuzatishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Amaliy tomoni-nutq buzilishining oldini olish, aniqlash va bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Logopediyaning nazariy va amaliy azifalari bir-biriga chambarchas bog'langandir.

Birinchidan, sistemli yondashuv tamoyili zamonaviy logopediyaning eng muhim tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Nutq buzilishlarini kompleks o'rganish zaruriyati bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Levina o'z tadqiqotlarida ko'rsatganidek, nutq faoliyati komponentlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir komponentdagi nuqson boshqa komponentga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan: fonematik idrokning buzilishi nafaqat tovush talaffuziga, balki sòz boyligining shakillanishiga ham ta'sir qiladi.

Ikkinchidan, rivojlanish tamoyili zamonaviy logopediyaning eng muhim tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Nutq ontogenezi qonuniyatlarini hisobga olish korreksion ishlarni rovojlantirish va amalga oshirishda muhim ahamyatga ega. Filicheva ta'kidlaganidek normal nutq rivojlanishi bosqichlarini chuqur bilish logopedga nutq buzilishlarini samarali tuzatish imkonini beradi. Bu tamoyil ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda muhim ahamyat kasb etadi.

Uchinchidan, kompleks yondashuv tamoyili logopedik ishlar samaradorligini ta'millovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, logopedning boshqa mutaxassislar-



psixolog, nervopotolik, otodont, defektolog kabi mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlashi korreksion ishlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu yondashuv nutq buzulishlarini kelib chiqish sabablarini aniqlash va bartaraf etishda kompleks choralar ko’rish imkonini beradi.

Bundan tashqari zamonaviy logopediyada qo’llaniladigan metodlar tizimi ham takomillashib bormoqda. Diagnostik metodlar nutq buzulishlarini aniq va to’g’ri aniqlash imkonini bersa, korreksion-rivojlantiruvchi metodlar esa aniqlanga muommolarni samarali bartaraf etish imkonini beradi. Praflaktik metodlar esa nutq buzulishlarini oldini olishga qaratilgan bo’lib, bu yo’nalish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Logopediya fanida tashxis qo’yish va korreksion ishlarni olib borishda yoshga xos xususiyatlarni hisobga olidh tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir yosh davri o’zing rivojlanish qonuniyatlariga ega bo’lib, bu logopedik ishlarni rejalashtirishda muhim rol o’ynaydi. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda o’yin metodlaridan foydalanish yuqori samara bersa maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashda ta’limiy metodlarga ko’proq e’tibor qaratiladi.

Xulosa: Logopediya bu- qiziqarli va mas’uliyatli soha bo’lib.U juda ko’p vaqt talab etadi, oylar hattoki yillar kerak bo’ladi. Logopediyaning yana bir xususiyatlaridan juda katta sabr talab etishda chunki bu sohaga sog’lom bolalar emas nuqsonli, zaif bolalar kelishidatur. Bunday bolalar logopedlardan o’zlari uchun davo istab, boshqalar kabi ravon nutqga ega bo’lishni hohlab kelishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

- 1.F.R.Qodirova, R.M.Qodirova Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi.Toshkent-2006.
- 2.Мастюкова Е. Е., "Основы логопедии", Москва, 2018
3. Л. С. Волкова, Р. И. Лалаева, Е. М. Мастюкова va boshq. (qarovchi: Л. С. Волкова, С. Н. Шаховская) *Логопедия. Учебник для студентов дефектологических факультетов педуниверситетов 1998*
4. Д. Д. Ориббоева, М. М. Адашалиева Вопросы внедрения и развития инклюзивного образования в странах центральной азии // «Ёш олимлар ахборотномаси» – «Вестник молодых ученых». 2025. №. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/voprosy-vnedreniya-i-razvitiya-inklyuzivnogo-obrazovaniya-v-stranah-tsentralnoy-azii> (дата обращения: 13.10.2025).
- 5.Oribboyeva, D. D., & Assertiv, S. B. Q. G. A. (2024). xulq shakllanishining o’ziga xosligi. Science and Education, 2.
6. Oribboyeva , D. (2024). BULLING O’SMIRLARDA DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(12), 115–117. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/58095>
- 7.Raximova V S ”Maxsus pedagogika” -T 2005-yil 2.Ayupova M. Logopediya Toshkent, 2007-yil.
8. Dilshoda, I., & Oribboeva, D. D. (2024). AUTIZM NAMOYON BOLISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 63(3), 74-77.
9. Ramziddin Tursunov. (2025). IJTIMOIIY ONG VA MA’NAVIYAT TUSHUNCHASI HAMDA UNING MAZMUN-MOHIIYATI. *Kelajak o’qituvchisi - Kelajak Bunyodkori*, 1(2), 36-40.

YŷT: 631.43:631.432:631.559

LABORATORIYA SHAROITIDA INOKULYATSIYA QILINGAN KUZGI BUG‘DOY URUG‘INING UNUVCHANLIGI VA O‘SISH INDIKATORLARI

I.Sh.Mamatkulov

Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti.
e-mail:uzniizerno@yahoo.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “No’shkent” kuzgi bug’doy navining urug’i biologik faol moddalardan — “BIOVAK” va “Rokogumin” preparatlari bilan inokulyatsiya qilinganida laboratoriya sharoitida unuvchanligi, ildiz tizimining rivojlanishi va maysa bo’yi qanday o’zgarishi o’rganildi. Tajribalar chashka Petrida, uch marta takrorlab o’tkazildi. “BIOVAK” preparatining 5 l/t dozasi eng samarali ko’rsatkichlarni berdi, ammo fungitsid bilan aralashgan holatda salbiy natijalar qayd etildi. Natijalar biologik faol o’g’itlarning maqbul dozasini tanlash va ularni aralash qo’llashdagi ehtiyot choralarni asoslaydi.

Kalit so‘zlar. Bug’doy, BIOVAK, Rokogumin, inokulyatsiya, unuvchanlik, ildiz tizimi, biologik faol o’g’it, laboratoriya sharoiti.